

KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK TARAQQIYOTIDA O‘ZBEKISTONNING INVESTITSIYA JOZIBADORLIGINI OSHIRISH

*Turon xalqaro universiteti (Jahon iqtisodiyoti va xalqaro munosabatlar) fakulteti I-kurs
talabasi*

To‘xtaraliyev To‘lagan Nurlanbek o‘g‘li

Annotatsiya: *Mazkur maqolada kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirishda xorijiy investitsiyalarni o‘rni, tashqi moliyaviy resurslarni samarali jalb etish, investitsion jozibadorlikni natijalari tahlil qilingan.*

Kalit so‘zlar: *Tadbirkorlik, tadbirkorlik kapitali, investitsiyalar, ichki va tashqi investitsiyalar, xususiy loyihalar, investitsion jozibadorlik, investitsiya jalb etish yo‘nalishlari.*

Аннотация: *В данной статье анализируется роль иностранных инвестиций в дальнейшем развитии малого бизнеса и частного предпринимательства, эффективное привлечение иностранных финансовых ресурсов, результаты инвестиционной привлекательности.*

Ключевые слова: *предпринимательство, предпринимательский капитал, инвестиции, отечественные и иностранные инвестиции, частные проекты, инвестиционная привлекательность, направления инвестиционной привлекательности.*

Annotation: *This article analyzes the role of foreign investment in the further development of small business and private entrepreneurship, the effective attraction of foreign financial resources, the results of investment attractiveness.*

Keywords: *Entrepreneurship, entrepreneurial capital, investments, domestic and foreign investments, private projects, investment attractiveness, areas of investment attraction.*

Jahon tajribasidan ma’lumki, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda investitsiyalarni o‘rni kattadir. Investitsiya bu kelajakda foyda yoki ijtimoiy samara olish uchun investor tomonidan iqtisodiyotning turli tarmoqlarini rivojlantirish maqsadida ma’lum muddatga sarflangan barcha turdagi moddiy-texnik va intellektual boyliklar bo‘lib, qo‘yiladigan ob‘ektlarga qarab real, moliyaviy va intellektual investitsiyalarga bo‘linadi. Asosiy fondlar va aylanma mablag‘larga investorlar qo‘yadigan barcha turdagi boyliklar real investitsiya deb tushuniladi. Bunga bank krediti, lizing, texnika va texnologiyalar va boshqalar kiradi. Investorlar tomonidan qimmatbaho qog‘ozlarga qo‘yadigan barcha turdagi boyliklarga moliyaviy investitsiya deyiladi. Bunga aksiya, obligatsiya, veksel va boshqalar kiradi. Intellektual investitsiya bu kadrlar tayyorlash, ilmiy tekshirish, ta’lim va boshqa intellektual salohiyatlarga investorlar tomonidan qo‘yadigan barcha turdagi boyliklardir.[4] Xorijiy investitsiya – bu kelajakda foyda yoki ijtimoiy samara olish uchun xorijiy investor tomonidan boshqa mamlakatning iqtisodiyotini rivojlantirish maqsadida ma’lum muddatga sarflangan barcha turdagi moddiy-texnik va intellektual boyliklarga aytiladi. Xorijiy investitsiyalar qo‘yiladigan ob‘ektlarga qarab to‘g‘ridan-to‘g‘ri, portfel investitsiyalarga bo‘linadi. Asosiy fondlar va aylanma mablag‘larga investorlar qo‘yadigan barcha turdagi boyliklarga to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiya deb tushuniladi.[1]

Mamlakatimizdagi barqarorlik va qulay investitsiya muhiti natijasida tashqi iqtisodiy aloqalar izchil rivojlanmoqda. 2021 yilda jami 10 milliard dollardan ortiq, jumladan, 8 milliard 100 million dollar to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiya o‘zlashtirilgan. Buning natijasida 318 ta yirik va 15 mingdan ziyod hududiy loyihalar amalga oshirilib, 273 mingdan ortiq ish o‘rni tashkil etilgan. Yangi korxonalar jami 1 milliard dollardan ziyod eksport va 530 million dollarlik import o‘rnini to‘ldirish imkoniyatiga ega hisoblanadi. Albatta, koronavirus pandemiyasi hali-hamon iqtisodiy jarayonlarga jiddiy ta’sir o‘tkazmoqda. Shunga qaramay, eksportda izchil o‘shishga erishilmoqda. Xususan, 2020 yilda mamlakatimizda eksport miqdori 9 milliard dollardan oshgan bo‘lsa, 2021 yilda 12 milliard dollarni tashkil etgan. E’tiborlisi, bunda tayyor va yarim tayyor mahsulotlar ulushi sezilarli ko‘paygan.

Tahlillarga ko‘ra, turizm, tibbiyot va mashinasozlik tarmoqlari, hududlardan Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Navoiy va Xorazm viloyatlarida xorijiy investitsiyalarni jalb qilish darajasi past bo‘lib qolmoqda. Mahalliy mahsulotlar turini ko‘paytirish, bu borada tadbirkorlarni qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish zarur bo‘ladi. Jumladan, yurtimizda ishlab chiqarilmaydigan tovarlarni o‘zlashtirgan mahalliy korxonalar mahsulotlari kafolatli xarid qilinishi zarur. So‘nggi bir necha yil ichida O‘zbekiston jadal iqtisodiy o‘zgarishlarni boshdan kechirdi va xalqaro hamjamiyatda biznes va investitsiyalar uchun turli xil to‘siqlarini bartaraf etishda ochiqlik, yangilanish va qat’iyatlilik ramzlaridan biri sifatida tobora ko‘proq namoyon bo‘lmoqda.[2]

Jumladan, Namangan viloyatining Germaniya bilan tashqi savdo aylanmasi rivojlanmoqda. 2022-yilning yanvar-noyabr oylari yakuni bilan Namangan viloyatining Germaniya davlati bilan tashqi savdo aylanmasi 31,9 mln.AQSH dollarini tashkil etib, viloyatining tashqi savdo aylanmasida 2,7% ulush bilan Rossiya, Xitoy, Qozog‘iston, Turkiya va Qirg‘iziston respublikasidan keyingi o‘rinni egallagan. Tashqi savdo aylanmasida eksport hajmi 8,7 mln. AQSH dollarini, import hajmi esa 23,2 mln. AQSH dollarini tashkil etgan. Ma’lumot o‘rnida o‘tgan II oyda Namangan viloyatining tashqi savdo aylanmasi 1 mlrd. 163,1 mln. AQSH dollarini tashkil etди.[3]

O‘zbekiston Respublikasining "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to‘g‘risida”gi Qonunini samarali ijro etilishi uchun investorlar bilan Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi, hokimliklar, xorijdagi diplomatik vakolatxonalar va tijorat banklari rahbarlari o‘rinbosarlaridan iborat bo‘lgan davlat hokimiyat organlari hamkorligining 4 bosqichli mexanizmi muvaffaqiyatli yo‘lga qo‘yilgan. Ushbu mexanizm investorlarning barcha so‘rovlariga tezkor javob qaytarish va qonunda nazarda tutilgan chora-tadbirlar amalga oshirilishining samaradorligini kerakli tarzda nazorat qilish imkonini beradi. Shu nuqtai nazardan, Yevropa tiklanish va taraqqiyot bankining ko‘magi bilan tuzilgan, Respublikada faoliyat yuritayotgan investorlar bilan bevosita muloqotni ta’minlaydigan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Xorijiy investorlar kengashining rolini ta’kidlash muhim ahamiyatga ega.[2]

Xususiy investitsiyalarni faollashtirish uchun tadbirkorlik faoliyatini erkinlashtirish talab etiladi. Biznes bilan doimiy muloqot, muayyan sektorlarning rivojlanishiga to‘sqinlik qiladigan to‘siqlarni aniqlash va yengib o‘tish bo‘yicha astoydil ish olib borish kerak. Shu munosabat bilan quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha faol ish olib borilmoqda:

Birinchidan, iqtisodiy o‘shishning bir maromdagi yuqori va barqaror sur‘atlarini saqlab qolish uchun mamlakat iqtisodiyotining barqaror va raqobatbardosh, bank tizimi aktivlarining katta qismi xususiy investorlar qo‘lida bo‘lgan modelini shakllantirish zarur;

Ikkinchidan, investitsiyaviy jozibadorlikni oshirish va barqaror iqtisodiy o‘shishning asosiy omillaridan biri bo‘lgan infratuzilmaga yo‘naltirilgan investitsiyalarining jadal o‘shishini ta‘minlash maqsadida davlat-xususiy sheriklik va loyihalarni moliyalashtirish vositalarini rivojlantirish orqali investitsiyaviy faoliyatni rag‘batlantirish ham faol tarzda olib borilmoqda;

Uchinchidan, raqamlashtirish va davlat xizmatlarini masofaviy taqdim etish orqali investitsiya loyihalarini amalga oshirishda byurokratik to‘siqlar va cheklovlarni to‘liq bartaraf etish uchun investorlar va davlat o‘rtasidagi munosabatlar optimallashtirilmoqda. Shaffoflikni maksimal darajada ta‘minlash va korrupsiyaning oldini olish uchun xorijiy investorlarning murojaatlari va so‘rovlari bilan ishlashni tashkil etish sifati yaxshilanmoqda;

To‘rtinchidan, ish kuchi va kapitalning iqtisodiyotning qonuniy sektorlaridan yashirin iqtisodiyotga oqib ketishiga olib keladigan tranzaksiya xarajatlarining kamayishi kuzatilmoqda;

Beshinchidan, kelgusida texnologik yutuqlarga erishish nuqtasiga aylanishi va keyingi 20-30 yil davomida mamlakat ishlab chiqarish quvvatlarini rivojlanishi uchun zamin yaratishi mumkin bo‘lgan O‘zbekistonning eng istiqbolli sohalariga yo‘naltirilgan investitsiya siyosati strategiyasi ishlab chiqilmoqda.

Investitsiya muhiti mamlakatdagi barcha faoliyat sohalariga ta‘sir ko‘rsatishini inobatga olgan holda, islohotlar ko‘lami iqtisodiy, institutsional, ta‘lim, sog‘liqni saqlash, qishloq xo‘jaligi, suv ta‘minoti, energetika, transport va boshqa yo‘nalishlarni qamrab oldi. Shuningdek, tadbirkorlarni va investitsiya loyihalari tashabbuskorlarini amaliy qo‘llab-quvvatlashga katta e‘tibor qaratilmoqda. Ushbu yo‘nalishdagi eng yorqin misol - bu 2020 yilda tuzilgan eksport va investitsiyalarni rivojlantirish masalalari bo‘yicha Hukumat komissiyasining faoliyati bo‘lib, uning vazifalariga tadbirkorlar va eksportchilar bilan yaqin hamkorlik qilish, pandemiya tufayli yuzaga kelgan cheklovlar bilan bog‘liq muammolarni taxlil qilish, shuningdek, har bir tadbirkorlik sub‘ektining muammosini hal qilishda individual yondashuv asosida tezkor va samarali yechimlarni ishlab chiqish va amalga oshirish kiradi. O‘tgan yil yakuni bo‘yicha Komissiya a‘zolarining joylarga chiqqan holda olib borgan faoliyati natijasida 98 mingdan ortiq korxonalar faoliyati manzilli tartibda o‘rganildi va natijada 5902 ta korxonalarining 6235 ta muammoli masalalari aniqlandi. Muammolarning har biri tegishli vazirliklar, idoralar, tijorat banklari, mahalliy hokimiyat organlari va Respublikaning xorijdagi diplomatik vakolatxonalarini bilan yaqin hamkorlikda hal etildi.[4]

Koronavirus pandemiyasi jahon iqtisodiyoti, ayniqsa, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyati uchun og‘ir sinov bo‘lmoqda. Natijada iqtisodiyotning barcha tarmoqlari xususan tadbirkorlik sub‘ektlari ham o‘z faoliyatini qisqartirishga yoki muayyan muddat to‘xtatishga majbur bo‘lmoqdalar. Pandemiya sharoitida daromadlarning pasayishi va jamg‘armalarning uzoq muddatga yetmaslik ehtimoli davlat tomonidan qo‘shimcha mablag‘larni safarbar etishni taqozo etadi. Xalqaro miqyosda 2022 yildan karantin choralarini yumshatilishi tadbirkorlikni rivojlanishi bilan birga xorijiy investitsiyalarni ham faollashuviga yo‘l ochadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- I. Ulmasov A., Vahobov A. Iqtisodiyot nazariyasi. (Darslik) - T: Shark, 2006. - 473 b.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi 75- sessiyasida so‘zlagan nutqini o‘rganish va keng jamoatchilik o‘rtasida targ‘ib qilish bo‘yicha o‘quv qo‘llanma. – T.: «Ma’naviyat», 2021. – 280 b.
3. Namangan haqiqati” gazetasi, 2017-yil 11-fevral, 12-son.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. –T.: «O‘zbekiston nashriyoti» DUK, 2020. – 72 b.